



XUSUSIY SEKTORDA MEHNAT QILAYOTGAN ISHCHILARNING HUQUQIY HIMOYASINI TA'MINLASH, ISH BERUVCHILAR IJTIMOIIY MAS'ULIYATINI OSHIRISH YO'NALISHIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19018562>

Levakov Izzatulla Nematillayevich

i.f.f.d, v.b dots,

“University of Business and Science”, “Menejment” kafedراسي mudiri

izzatillalevakov@gmail.com

+99888-441-05-09

O'ktamov Shoxruxbek Ulug'bek o'g'li

“University of Business and Science” 2-bosqich magistranti

shohkrukhuktamov2404@gmail.com

+99891-117-07-03

Annotatsiya: *Mazkur maqolada xususiy sektorda mehnat qilayotgan ishchilarning huquqiy himoyasini ta'minlash, norasmiy bandlik va “konvert” usulida ish haqi to'lash muammolari tahlil qilinadi. Shuningdek, yashirin iqtisodiyotning mehnat bozori, ijtimoiy himoya tizimi va davlat budjeti daromadlariga ta'siri ko'rib chiqiladi. Qurilish, savdo va xizmat ko'rsatish sohalarida mehnat munosabatlarini rasmiylashtirish muammolari, ish beruvchilarning ijtimoiy mas'uliyati hamda mehnat huquqlarining buzilishi bilan bog'liq holatlar yoritilgan. Maqolada norasmiy bandlikni qisqartirish, mehnat munosabatlarini qonuniy asosda yo'lga qo'yish va halol tadbirkorlik muhitini rivojlantirish bo'yicha muhim taklif va xulosalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *norasmiy bandlik, konvert maosh, yashirin iqtisodiyot, mehnat huquqlari, xususiy sektor, ijtimoiy himoya, mehnat bozori, ish beruvchilar ijtimoiy mas'uliyati, mehnat shartnomasi, iqtisodiy shaffoflik.*

Аннотация: *В данной статье анализируются вопросы обеспечения правовой защиты работников частного сектора, проблемы неформальной занятости и выплаты заработной платы «в конвертах». Рассматривается влияние теневой экономики на рынок труда, систему социальной защиты и доходы государственного бюджета. Особое внимание уделено проблемам оформления трудовых отношений в строительстве, торговле и сфере услуг, а также вопросам социальной ответственности работодателей и нарушениям трудовых прав работников. В статье представлены выводы и предложения, направленные на сокращение неформальной занятости, легализацию трудовых отношений и развитие честной предпринимательской среды.*



Ключевые слова: *неформальная занятость, зарплата в конвертах, теневая экономика, трудовые права, частный сектор, социальная защита, рынок труда, социальная ответственность работодателей, трудовой договор, экономическая прозрачность.*

Abstract: *This article examines the issues of ensuring legal protection for workers employed in the private sector, as well as the problems of informal employment and the payment of wages “in envelopes.” It also analyzes the impact of the shadow economy on the labor market, the social protection system, and state budget revenues. Particular attention is given to the challenges of formalizing labor relations in the construction, trade, and service sectors, as well as to the social responsibility of employers and violations of labor rights. The article provides conclusions and recommendations aimed at reducing informal employment, legalizing labor relations, and promoting a fair and transparent business environment.*

Keywords: *informal employment, envelope wages, shadow economy, labor rights, private sector, social protection, labor market, employer social responsibility, employment contract, economic transparency.*

Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotida xususiy sektorning o‘rni izchil ortib bormoqda. Yangi ish o‘rinlarining asosiy qismi aynan xususiy tadbirkorlik hissasiga to‘g‘ri kelayotgani bu sohaning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Biroq ushbu jarayonlar bilan bir qatorda mehnat munosabatlarini rasmiylashtirish, ishchilarning huquqiy himoyasini ta‘minlash, norasmiy bandlik va “konvert” maoshlar kabi muammolar ham dolzarbligicha qolmoqda.

Ayni paytda iqtisodiy faol aholining salmoqli qismi xususiy sektorda mehnat qiladi. Davlat tomonidan mehnat bozorini tartibga solish, ish o‘rinlarini legallashtirish va ishchi-xodimlarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramasdan, ayrim sohalarda, xususan, qurilish, savdo va xizmat ko‘rsatish

tarmoqlarida mehnat shartnomasiz ishlash holatlari saqlanib qolmoqda.

Norasmiy bandlik va “konvert” orqali maosh to‘lash amaliyoti, eng avvalo, ishchilarning o‘zi uchun jiddiy oqibatlariga olib keladi. Bunday holatda fuqaro pensiya ta‘minoti, ijtimoiy sug‘urta, mehnat staji va mehnat muhofazasi kafolatlaridan mahrum bo‘ladi. Shu bilan birga, mazkur holat budjet va ijtimoiy jamg‘armalarga tushumlarning kamayishiga, mehnat bozorida adolatsiz raqobat muhitining shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Muammoning yana bir jihati ish beruvchilarning ijtimoiy mas‘uliyati bilan bog‘liq. Ayrim yirik korxonalarda mehnat xavfsizligi, ijtimoiy kafolatlar va korporativ ijtimoiy mas‘uliyat tamoyillari joriy etilgan bo‘lsa-da, kichik biznes subyektlarida bu masala ko‘pincha



ikkinchi darajali hisoblanadi. Ijtimoiy mas'uliyatning asosan ixtiyoriy tusda qolib ketishi yagona va barqaror standartlarning shakllanishiga to'sqinlik qilmoqda.

O'zbekistonda 2024 yilda birinchi marta yashirin (soyadagi) iqtisodiyot hisoblab chiqildi va yalpi ichki mahsulotning tarkibiy qismi sifatida hisobga olindi.

Kuzatilmaydigan iqtisodiyot — bu rasmiy statistika to'liq qayd eta olmaydigan iqtisodiy faoliyatning bir qismi. U ham norasmiy, ham yashirin iqtisodiyotni o'z ichiga oladi.

Norasmiy iqtisodiyot — bu ro'yxatdan o'tmasdan amalga oshiriladigan kichik biznes va xizmatlar. Masalan, uyda kiyim tikish, litsenziyasiz taksi xizmati yoki rasmiy ruxsatnomasiz sabzavot sotish.

Yashirin iqtisodiyot esa davlatdan yashirilgan qonuniy faoliyatning bir qismidir. Masalan, tadbirkorlar soliqni kam to'lash uchun daromadining bir qismini ko'rsatmasligi yoki xodimlarga oylik maoshni "konvert" usulida berish holatlari.

Hozirgi kunda yashirin iqtisodiyot hajmi 120 trillion so'mdan ortiqni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich asosan xizmatlar sohasi, qishloq xo'jaligi va qurilish tarmoqlarida yuqori ulushga ega.

Shu bilan birga, so'nggi yetti yilda kuzatilmaydigan iqtisodiyot ko'lami sezilarli darajada qisqargan. Agar 2016–2017 yillarda uning ulushi yalpi ichki mahsulotning 50–55 foizini tashkil etgan bo'lsa, hozirda bu ko'rsatkich 35

foizgacha kamaygan. 2017 yilda ishchilarning qariyb 60 foizi norasmiy band bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich ham deyarli ikki barobarga qisqargan.

Hozirgi paytda korxonalarining 22 foizida norasmiy xodimlar mehnat qilmoqda, 18 foiz holatlarda esa ish haqi hali ham "konvert" usulida to'lanmoqda.

Muhim jihat shundaki, rasmiy ishlovchilarning oylik maoshi norasmiy ishlovchilarga nisbatan o'rtacha 1 million 300 ming so'mga yuqori. Sohalar kesimida bu farq qishloq xo'jaligida 1,5 million so'm, savdoda 1,3 million so'm, qurilishda 1,27 million so'm, uy-joy xizmati va umumiy ovqatlanish sohasida esa 1,1 million so'mni tashkil etmoqda.

Tadbirkorlar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, yashirin iqtisodiyotga murojaat qilishning asosiy sabablari sifatida xarajatlarning pastligi, ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish tartiblarining osonligi, mavsumiy ishchilarni jalb qilish imkoniyati hamda soliq majburiyatlarining mavjud emasligi qayd etilgan.

Davlat rahbari ta'kidlaganidek, yashirin iqtisodiyotni faqat nazorat va jazo choralar bilan qisqartirish mumkin emas. Bu borada soliq madaniyatini oshirish, halol mehnatni rag'batlantirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va raqamlashtirish, mehnat munosabatlarini soddalashtirish hamda tadbirkorlar uchun qonuniy va ochiq biznes yuritishni manfaatli qilish asosiy vazifa etib belgilangan.

Qurilish sohasida norasmiy bandlik va ish haqini "konvert" usulida to'lash orqali



soliqdan qochishga urinish sababli 6,3 mingta obyekt hisobotlarida ular 0 yoki 1 nafar ishchi bilan qurib bitkazilgani ko'rsatilgan. Bu haqda 29 avgust kuni Savdo-sanoat palatasi tomonidan qurilish sohasi vakillari bilan tashkil etilgan ochiq muloqotda ma'lum qilindi.

Taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, qurilish sohasida kuzatilmaydigan iqtisodiyotning hajmi 97 trillion so'mga (41 foiz) baholanmoqda. Yashirilgan soliqlar 1,2 trillion so'mni, talon-toroj qilingan mablag'lar esa 203 milliard so'mni tashkil etadi.

Bu— nafaqat iqtisodiy, balki jamiyatimizdagi eng og'riqli ijtimoiy masalalardan biridir. Biz ko'pincha "yashirin iqtisodiyot" haqida gapirganda, faqat to'lanmagan soliqlarni tasavvur qilamiz. Lekin bu muammoning ortida millionlab vatandoshlarimizning kelajagi, ularning ijtimoiy himoyasi va inson qadri masalasi yotibdi.

Avvalo ta'kidlash joizki, davlatimiz rahbari tomonidan iqtisodiyotda shaffoflikni ta'minlash, yashirin iqtisodiyotga qarshi qat'iy kurashish masalalari doimiy e'tibor markazida bo'lib kelmoqda.

Prezidentimiz o'tkazgan yig'ilishlarda iqtisodiyotda yashirin iqtisodiy aylanmalar va soliqdan bo'yin tovlash holatlari davlat budjeti barqarorligiga, aholining ijtimoiy himoyasiga hamda sog'lom raqobat muhitiga jiddiy tahdid solayotgani alohida ta'kidlandi.

Xususan, Toshkent shahri misolida keltirilgan raqamlar muammoning

ko'lami nihoyatda katta ekanini ko'rsatmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, poytaxtda yashirin iqtisodiyot hajmi 60 trillion so'mga yetgan. Bu esa davlat budjeti har yili qariyb 7,5 trillion so'm mablag'ni yo'qotayotganini anglatadi. Ushbu mablag'lar xalqimiz uchun pensiya, nafaqa, ta'lim va tibbiyotga yo'naltirilishi mumkin edi.

Davlat rahbari tomonidan "Chorsu" bozori hamda "Malika" savdo kompleksidagi holat tanqid qilingani ham bu muammoning naqadar dolzarb ekanini ko'rsatadi.

Masalan, 1,5 mingga yaqin tadbirkor faoliyat yuritadigan mazkur kompleksda ularning atigi to'rtidan biri ro'yxatdan o'tgani, tadbirkorlarning 25 foizi oyiga 1 million so'm ham soliq to'lamayotgani, plastik kartalar orqali amalga oshirilgan 600 milliard so'mlik savdo tushumi yashirilgani juda jiddiy signaldir.

Yuqoridagi holatlar norasmiy bandlik va "konvert" maoshlar muammosi yashirin iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi. Eng xavfli, bu jarayon iqtisodiy ko'rsatkichlarga emas, balki inson huquqlari va ijtimoiy adolat masalalariga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Yashirin iqtisodiyotning bunday salbiy oqibatlari davlat budjeti daromadlarining oshishiga to'sqinlik qilmoqda. Buning oqibatida joylarda ijtimoiy masalalarni samarali hal qilish imkoniyatlari cheklanmoqda.

Norasmiy bandlikning eng achinarli oqibati — mehnat huquqining



ta'minlanmasligi, mehnat muhofazasi talablarining bajarilmasligidir. Bu ayniqsa qurilish sohasiga tegishli.

2025 yil 29 avgustda Savdo-sanoat palatasi tomonidan qurilish sohasi vakillari bilan tashkil etilgan ochiq muloqotda norasmiy bandlik va ish haqini "konvertida to'lash" orqali soliqdan qochishga urinish sababli 6,3 mingta obyekt hisobotlarida ular 0 yoki 1 nafar ishchi bilan qurib bitkazilgani ko'rsatilgan.

Katta qurilishlarni albatta sanoqli xodimlar bilan amalga oshirib bo'lmaydi. Xalq demokratik partiyasi bu masalada mutasaddi vazirlik-idoralar qonunlar ijrosini ta'minlashi zarur, deb hisoblaydi.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining xabar berishicha, 2024 yili qurilish sohasida 204 ta baxtsiz hodisa qayd etilgan bo'lib, ular oqibatida 71 nafar ishchi halok bo'lgan.

2025 yilda esa baxtsiz hodisalar 234 taga, halok bo'lganlar soni 99 nafarga yetgan.

Demak, qurilishda mehnat shartnomasisiz ishlayotgan fuqarolarimiz baxtsiz hodisa tufayli vafot etganda yoki jarohat olganda ularning oilalari hech qanday ijtimoiy himoyasiz qolmoqda. Chunki mehnat shartnomasi bo'lmagan holda na tovon puli, na boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi tayinlanadi. Bu esa nafaqat mehnat qonunchiligiga, balki inson qadrini himoya qilish tamoyillariga ham mutlaqo ziddir.

Ko'p hollarda ishchilarga rasmiy hisob-kitobsiz, "konvert" usulida maosh to'lanmoqda. Bu esa ishchilar

daromadlarining shaffofligini ta'minlamaydi, ularning kelajakdagi pensiya ta'minotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Eng muhimi, bunday ish haqi ko'pincha ishchining kundalik hayotiy ehtiyojlarini qoplashga ham yetarli bo'lmaydi. Mehnatga munosib haq to'lanmas ekan, bu ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirib, aholi turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

2GIS ma'lumotlariga ko'ra, 2026 yil boshiga kelib "kafe va restoranlar" bo'yicha qidiruv 2800 dan ortiq joylarni, jumladan restoran, kafe-barlarni ko'rsatadi.

Ushbu muassasalarda asosan yoshlar ofitsiant yoki xizmat ko'rsatuvchi xodim sifatida ishlamoqda. Ko'p hollarda ular rasmiy mehnat shartnomasisiz ishlaydilar. Ularning ish vaqti ham tartibga solinmagan.

5–6 ta ovqatlanigan joylarga kirgan kafelarda ishlovchi yoshlardan so'raganimda, kuniga 10–12 soatdan ko'p ishlashini aytishdi.

Bunday yoshlarning 12 soatdan ko'p ishlashi, dam olish va mehnat muhofazasi talablariga rioya etilmasligi Mehnat kodeksiga ham, xalqaro normalarga ham mutlaqo zid.

Bu holat yoshlarning mehnat huquqlari buzilishi bilan birga, ularning sog'ligi va kasbiy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yoshlarimizni jismonan va ma'nan toliqtiruvchi bunday "ekspluatatsiya"ga chek qo'yishimiz kerak.



Albatta, tadbirkor iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchidir. Biz tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlaymiz. Chunki tadbirkor rivojlansa, iqtisodiyot rivojlanadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi. Biroq tadbirkorlik inson mehnati hisobidan adolatsiz munosabatlarga asoslanmasligi lozim.

Tadbirkorlik, eng avvalo, ijtimoiy mas'uliyat demakdir. Ish beruvchi mehnat munosabatlarini qonuniy asosda yo'lga qo'yishi, xodim huquqlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishi shart.

Eng muhimi, yashirin mehnat munosabatlari va soliqdan bo'yin tovlash holatlari halol ishlayotgan tadbirkorlarni noqulay raqobat sharoitiga tushirib qo'ymasligi kerak.

Biznesida ter to'kib ishlayotganlarga mehnatiga yarasha haq to'lamasdan, boshqalarning huquq va manfaatlarini hisobga olmasdan boylik orttirayotgan, qonuniy talablardan

qochayotgan qo'shtirnoq ichidagi uddaburon tadbirkorlarga huquqiy va moliyaviy ta'sir choralari ko'rish lozim.

XULOSA

Norasmiy bandlik va "konvert" maoshlar muammosi, eng avvalo, inson qadri, mehnatkashlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish masalasidir. Chunki bunday sharoitda ishlayotgan fuqarolar pensiya ta'minoti, ijtimoiy sug'urta va munosib mehnat sharoitlari kabi muhim kafolatlardan mahrum bo'lib qolmoqda.

Biz ishonamizki, mehnat munosabatlarida qonuniylik, adolat va ijtimoiy himoya ustuvor bo'lgan jamiyatgina barqaror taraqqiyotga erisha oladi. Bu yo'lda parlament, davlat organlari, tadbirkorlar, kasaba uyushmalari va fuqarolik jamiyati institutlari hamjihatlikda harakat qilishi lozim.